

## “TASDIQLAYMAN”

Ijtimoiy-mehnat masalalari bo'yicha  
uch tomonlama komissiya raisi

N. Xusanov

2022-yil 5 sentyabr



Ijtimoiy-mehnat masalalari bo'yicha uch tomonlama komissiya majlisining  
9-sonli

### BAYONNOMASI

2022-yil 5 sentyabr

O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat  
munosabatlari vazirligining majlislar zali

**Raislik  
qiluvchi:** - N.Xusanov

- O'zbekiston Respublikasi Bandlik va  
mehnat munosabatlari vaziri, komissiya  
raisi

**Ishtirok  
etganlar:**

- Ijtimoiy-mehnat masalalari bo'yicha uch  
tomonlama komissiya a'zolari (ro'yxat  
bo'yicha)

### KUN TARTIBI:

#### **I. 2022-yil paxta hosilini nes-nobud qilmasdan uyushqoqlik bilan yig'ib-terib olishni tashkil etish bo'yicha Tavsiyalar haqida**

(N.Xusanov, B.Maxmadaliyev, E.Margiashvili, M.Isayev va boshqalar)

“Joriy yilgi paxta hosilini uyushqoqlik bilan nes-nobud qilmasdan o'z vaqtida va sifatli yig'ib-terib olishda fuqarolarning ixtiyoriy ishtirok etishlari va mavsum davomida majburiy mehnatga yo'l qo'ymaslik to'g'risidagi”gi masalalar yuzasidan Odam savdosiga va majburiy mehnatga qarshi kurashish Milliy komissiyasining 2022 yil 12 avgustdagi 14-sonli bayoni va bayonga ilova tasdiqlandi.

Majlisda ishtirok etayotgan komissiya a'zolari tomonidan mazkur Bayonga qo'shimcha ravishda 2022-yil paxta hosilini nes-nobud qilmasdan uyushqoqlik bilan yig'ib-terib olishni milliy va xalqaro mehnat standartlariga amal qilgan holda yanada samarali tashkil etishga ko'maklashish maqsadida ishlab chiqilgan Tavsiyalar muhokama qilindi.

Bildirilgan taklif yuzasidan Bandlik va mehnat munosabatlari vaziri o'rinbosari B.Umurzaqov va O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi raisi o'rinbosari B.Maxmadaliyevlar so'zga chiqib ushbu Tavsiyalar loyihasini ma'qulladilar.

Komissiya a'zolari tomonidan bildirilgan fikr va mulohazalar hamda takliflarni inobatga olib **Ijtimoiy-mehnat masalalari bo'yicha uch tomonlama komissiya qaror qiladi:**

1. 2022-yil paxta hosilini nes-nobud qilmasdan uyushqoqlik bilan yig'ib-terib olishni milliy va xalqaro mehnat standartlariga amal qilgan holda yanada samarali tashkil etishga ko'maklashish maqsadida ishlab chiqilgan "2022-yil paxta hosilini nes-nobud qilmasdan uyushqoqlik bilan yig'ib-terib olishni tashkil etish bo'yicha Tavsiyalar" 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Majburiy mehnat va bolalar mehnatiga yo'l qo'ymaslik borasida olib boriladigan monitoringlar o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom 2 -ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

## **II. 2022-yil paxta yig'im-terimi mavsumida terilgan paxta uchun haq to'lashning minimal miqdorini belgilash haqida**

(N.Xusanov, B.Maxmadaliev, E.Margiashvili, M.Isaev va boshqalar)

Yildan yilga qo'lda terilgan paxta uchun haq to'lash miqdori sezilarli darajada oshirilib kelinmoqda va bu o'z navbatida ko'ngilli ravishda terimda ishtirok etuvchilarning ko'payishiga, majburiy mehnatning esa bartaraf etilishiga ko'maklashmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi va O'zbekiston Ish beruvchilari konfederatsiyasi o'rtasida ijtimoiy-iqtisodiy masalalar bo'yicha 2020-2022-yillar uchun qabul qilingan Bosh kelishuvning 19-bandida "Hukumat, ish beruvchilar tashkilotlari va kasaba uyushmalari o'rtasida mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorini belgilash bo'yicha uch tomonlama maslahatlashuvlar o'tkazish tizimini yo'lga qo'yish" belgilangan.

Shuningdek, 2022-yil 1-avgust kungi Ijtimoiy-mehnat masalalari bo'yicha uch tomonlama komissiyaning joriy yilda terilgan paxta uchun haq to'lashning minimal miqdorini belgilash bo'yicha takliflar ishlab chiqildi va Vazirlar Mahkamasiga kiritildi.

Komissiya a'zolari tomonidan kun tartibidagi masala yuzasidan bildirilgan fikr va mulohazalar hamda paxta yig'im-terimi davomida joriy yilda terilgan paxta uchun haq to'lashning minimal miqdorini belgilash bo'yicha takliflar muhokama qilindi.

Komissiya a'zolari tomonidan bildirilgan fikr va mulohazalar hamda takliflarni inobatga olib **Ijtimoiy-mehnat masalalari bo'yicha uch tomonlama komissiya qaror qiladi:**

1. Joriy yilda terilgan paxta uchun haq to'lashning minimal qiymati uch tomonlama komissiya tarkibiga kiruvchi ijtimoiy sheriklar tomonidan kelishib berilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda 2022-yil paxta hosilini yig'ib-terib olishda:

- qo'lda terilgan 1 kilogramm paxta xomashyosi uchun 1- terimda – 1 500, 2-terimda – 1 800 so'mdan kam bo'lmagan miqdorda mehnat haqi to'lashga;

- Jizzax, Sirdaryo va Toshkent viloyatlarining barcha tumanlarida hamda Qoraqalpog'iston Respublikasining Qonliko'l, Qorao'zak, Kegeyli, Qo'ng'iro't, Taxtako'pir, Xo'jayli, Shumanay, Chimboy va Nukus tumanlarida, Qashqadaryo viloyatining Koson, Muborak, Mirishkor, Nishon, Kasbi va Qarshi tumanlarida hamda Surxondaryo viloyatining Qiziriq, Bandixon, Muzrabot va Sherobod tumanlarida qo'lda terilgan 1 kilogramm paxta xomashyosi uchun o'rnatilgan mehnat haqiga 250 so'mdan kam bo'lmagan miqdorida ustama belgilanishiga rozilik berilsin.

2. Ushbu bayonnoma Ijtimoiy-mehnat masalalari bo'yicha uch tomonlama komissiya a'zolariga, manfaatdor vazirlik va tashkilotlarga, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i KenGESiga, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklariga yuborilsin.

Majlis kotibi

G.Niyazmetova

(Э. Мухаммадиев)  
(КРҮ)

(У. Умаров)  
(ЎЗКҮҲ)

**2022-yil paxta hosilini nes-nobud qilmasdan uyushqoqlik bilan  
yig'ib-terib olishni tashkil etish bo'yicha  
TAVSIYALAR**

1. Mazkur "2022-yil paxta hosilini nes-nobud qilmasdan uyushqoqlik bilan yig'ib-terib olishni tashkil etish bo'yicha tavsiyalar (keyingi o'rinlarda Tavsiyalar deb ataladi) "Joriy yilgi paxta hosilini uyushqoqlik bilan nes-nobud qilmasdan o'z vaqtida va sifatli yig'ib-terib olishda fuqarolarning ixtiyoriy ishtirok etishlari va mavsum davomida majburiy mehnatga yo'l qo'ymaslik to'g'risidagi"gi masalalar yuzasidan Odam savdosiga va majburiy mehnatga qarshi kurashish Milliy komissiyasining 2022 yil 12 avgustdagi 14-sonli bayoni va bayonga ilovaga qo'shimcha ravishda paxta hosilini ixtiyoriylik asosida yig'ib-terib olishni tashkil etishda bolalar mehnati va majburiy mehnatga yo'l qo'ymaslik mexanizmlarini belgilaydi.

2. Mazkur Tavsiyalarda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

**terim otryadi**—paxta hosilini yig'ib-terib olish maqsadida ko'ngilli terimchilar tomonidan tashkil etilgan birlashgan jamoa;

**terim otryadi rahbari**—paxta hosilini yig'ib-terib olish bo'yicha ixtiyoriy terimchilar tomonidan tashkil etilgan jamoa boshlig'i;

**terimchilar** — paxta hosilini qo'l terimi asosida yig'ib-terishda bevosita ixtiyoriy asosda qatnashuvchi shaxslar, xususan:

fermer xo'jaliklari, paxta-to'qimachilik klasterlari va kooperatsiyalar (keyingi o'rinlarda—paxta yetishtiruvchi xo'jaliklar) xodimlari;

ko'ngilli, 18 yoshdan katta, muayyan mehnat bilan band bo'lmagan ishga layoqatli vaqtincha ishsiz, ayrim hollarda mehnat resurslari yetmagan hududga boshqa hududlardan kelib haq evaziga terimda ishtirok etish istagini bildirgan jismoniy shaxslar;

**ommaviy oferta**—shartnomaning barcha asosiy shartlarini o'z ichiga olgan, paxta yetishtiruvchi xo'jaliklar, mehnat organlari va xususiy bandlik agentliklarining javob qaytargan har qanday shaxs bilan taklifda ko'rsatilgan shartlar asosida paxta xomashyosini yig'ib-terib olish bo'yicha shartnoma tuzishga bo'lgan xohish-irodasi bilinib turgan taklif;

**paxta terimi markazi**—paxta terimini uyushqoqlik bilan olib borilishini tashkil etuvchi, paxta yetishtiruvchi xo'jaliklarga hamda terimchilarga ko'maklashuvchi, vaqtinchalik faoliyat olib boruvchi markaz.

3. Fermer xo'jaliklari tomonidan e'lon qilingan ommaviy oferta asosida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari mehnat organlari va xususiy bandlik

agentliklari bilan birgalikda terimchilar ro'yxatini shakllantiradilar.

4. Terimchilarning mehnat sharoitlari, ularga mehnat haqini o'z vaqtida va to'liq to'lanishi, sanitariya, maishiy sharoitlar yaratilishi hamda mehnat huquqi va muhofazasining ta'minlanishi ustidan mehnat organlari davlat nazoratini, kasaba uyushmalari jamoat nazoratini amalga oshiradi.

5. Terim mavsumida terimchilar xavfsizligi, transport harakati, yong'in xavfsizligi, jamoat tartibini saqlash ishlari ichki ishlar organlari tomonidan, terimda ishtirok etuvchilarning sog'ligini muhofaza qilish, dori-darmon ta'minoti tibbiyot birlashmalari tomonidan hamda sanitariya-gigiena talablariga rioya etilishini ta'minlash Davlat sanitariya osoyishtaligi organlari tomonidan amalga oshiriladi.

### **Terim otryadlarini tuzish va terimchilar jamoasini shakllantirish**

6. Terim otryadi rahbarligiga nomzodlar aholi orasida obro'-e'tiborga, ish tajribasiga va tashkilotchilik qobiliyatiga ega mahalla faollari orasidan saylanadi va 1-ilovaga muvofiq rasmiylashtiriladi.

7. Mulkchilik shakli va idoraviy buysinuidan qat'iy (fermer xo'jaliklari bundan mustasno) nazar korxonalar, tashkilot va muassasalarda ishlaydigan xodimlarning asosiy ish vaqtida paxta yig'im-terim ishlariga jalb etish qat'iy ta'qiqlanadi.

### **Terim otryadlari faoliyatini tashkil etish**

8. Terim otryadi rahbarlariga hududlarda tashkil etiladigan seminar-treninglarda tegishli yo'riqnomalar beriladi. Bunda ularga terimni samarali tashkil etish, mehnat huquq, xavfsizlik texnikasi, majburiy mehnat va bolalar mehnatidan foydalanish holatlarini oldini olish bo'yicha tushuntirishlar beriladi.

9. Terim otryadlari, shuningdek, fermer xo'jaliklari tomonidan paxta yig'im-terimi ishlariga terimchilarni jalb qilishda O'zbekiston Respublikasi qonunlari, xalqaro shartnomalari, shu jumladan Xalqaro mehnat tashkilotining "Bolalar mehnatining og'ir shakllarini ta'qiqlash va yo'q qilishga doir shoshilinch choralar to'g'risida"gi va "Zo'rlab ishlatish yoki majburiy mehnat to'g'risida"gi konvensiyalari talablariga qat'iy rioya qilinishi talab etiladi.

10. Terimda qatnashadigan terim otryadlari uchun 4-ilovada keltirilgan mehnat sharoitlarining minimal me'yorlari yotoq joy ajratadigan korxonalar, tashkilotlar shuningdek, xonadon egalari bilan kelishuvga ko'ra paxta-to'qimachilik klasterlari, kooperatsiyalar va fermer xo'jaliklari tomonidan ta'minlanadi.

11. Bunda, faoliyat ko'rsatayotgan ta'lim va sog'liqni saqlash muassasalari ob'ektlaridan yotoq joylari sifatida foydalanish qat'iy man qilinadi.

12. Otryad a'zolari Xalqaro mehnat tashkilotining "Birlashmalar erkinligi va kasaba uyushmalariga birlashish huquqini himoya qilish to'g'risida"gi 87-Konvensiyasi hamda O'zbekiston Respublikasining "Kasaba uyushmalari to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq otryad kasaba uyushmasi tashkilotini tuzish,

otryad kasaba uyushmasi tashkilotchisini saylash va Agrosanoat majmui xodimlari kasaba uyushmasi tuman kengashiga a'zo bo'lib kirish huquqidan foydalanishlari mumkin.

Ushbu huquqni ro'yobga chiqarish mazkur Tavsiyalarning 5- va 6-illovalariga namunaviy hujjatlar asosida amalga oshiriladi.

### **Terim otryadi rahbarining huquq va majburiyatlari**

13. Terim otryadi rahbari:

xo'jalikdan paxta dalasining terimga oldindan tayyorlashni, uzoq masofada joylashgan paxta dalalariga terimchilarni tashish uchun transport vositalari yetkazib berilishini ta'minlashni;

terilgan paxta hosilini tashish bo'yicha texnika va tirkamalarni uzluksiz ishini tashkil qilishni talab qilish;

terimchilardan paxta hosilining toza va sifatli terilishini talab qilish;

tuzilgan shartnomalarga muvofiq belgilangan majburiyatlar bajarilmagan taqdirda vakolatli organlar yoki sudga murojaat qilish huquqiga ega.

14. Terim otryadi rahbarining majburiyatlari:

zarur hollarda terim otryadi nomidan tegishli ishonchnoma (2-ilova) asosida tuman fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari Kengashi (yoki paxta-to'qimachilik klasterlari, kooperatsiyalar) bilan xo'jaliklarda yetishtirilgan paxta hosilini haq evaziga terib berish yuzasidan 3-ilovaga muvofiq shartnoma tuzadi;

xo'jaliklar rahbarlari bilan birgalikda teriladigan paxta maydonlarini hisob-kitob qilib, paxtaning ochilishiga qarab, teriladigan maydonlar dislokatsiyasini ishlab chiqadi;

terim otryadiga biriktirilgan tibbiy xodimda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish dori-darmonlari va tibbiy vositalar bilan jihozlanganligini o'rganadi va bu xodimning terim mavsumi davomida otryad bilan doimiy birga bo'lishini nazorat qiladi;

terim otryadidagi terimchilarga yetarli darajada etak, tarozi, issiq ovqat uchun oziq-ovqat mahsulotlari, o'choq-qozon, samovar bilan ta'minlanishini tashkil qiladi;

terim mavsumida har kuni terilgan paxta hosilini hisob-kitob qiladi, paxta qabul qilish punktiga topshirish uchun xo'jalik vakili bilan birgalikda boradi;

terim otryadi tarkibidagi har bir terimchining mehnat huquqiga rioya etilishini, xavfsizligini, oziq-ovqat ta'minotini doimiy nazoratini olib boradi;

paxta hosilining toza va sifatli terilishini ta'minlaydi.

Terim otryadining rahbari qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa huquq va majburiyatlarga ham egadir.

### **Yakuniy qoidalar**

15. Ijtimoiy-mehnat masalalari bo'yicha respublika uch tomonlama komissiyasiga, zaruriyat tug'ilganda, mazkur tartibga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish huquqi beriladi.

2022-yil paxta hosilini nes-nobud qilmasdan  
uyushqoqlik bilan yig'ib-terib olishni tashkil etish  
bo'yicha Tavsiyalarga  
1-ilova

**Ko'ngilli terimchilar jamoasining yig'ilish  
BAYONI**

2022-yil « \_\_\_ » \_\_\_\_\_ № \_\_\_\_\_ sh. (t.)

Yig'ilishda ishtirok etayotgan aholi soni – \_\_\_\_\_ nafar *(ro'yxat ilova qilinadi)*

Raislik qiluvchi: \_\_\_\_\_

**KUN TARTIBI:**

1. Paxta yig'im-terim mavsumida hosilni nes-nobud qilmasdan yig'ib olishga haq evaziga xizmat ko'rsatish sharti bilan ko'maklashishda aholining ishtiroki to'g'risida.

**Eshitildi:** Kun tartibidagi masala yuzasidan, yig'ilish ishtirokchilari o'z fikr va mulohazalarini bildirib o'tishdi. Xususan, muhokama jarayonida paxta yig'im-terim mavsumida hosilni nes-nobud qilmasdan yig'ib olishga ko'maklashish jarayoni aholi daromadlarini ko'paytirish uchun ham xizmat qilishi ta'kidlandi.

Shuningdek, paxta hosilini yig'ib olishda ishtirok etish yuzasidan ixtiyoriy jamoa (otryad) shakllantirish taklif etilib, unga rahbar sifatida \_\_\_\_\_ nomzodi ko'rsatildi.

Shundan so'ng, yuqoridagi masalalar yig'ilish ishtirokchilari ovoziga qo'yildi. Ovoz berish natijalari quyidagicha bo'ldi:

Yoqlab \_\_\_\_\_ ta ovoz;  
Qarshi \_\_\_\_\_ ta ovoz;  
Betaraf \_\_\_\_\_ ta ovoz.

Ko'ngilli terimchilar jamoasi (otryadi) rahbariga jamoa a'zolari nomidan paxta-to'qimachilik klasterlari, kooperatsiyalar va fermer xo'jaliklari yoki ularning vakillari bilan tuziladigan haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomalarini imzolash vakolatini berish taklifi kiritilib, bir ovozdan ma'qullandi. Mazkur taklifga nomzodning o'zi qarshilik bildirmadi.

**Qaror qilindi:**

1. Ko'ngilli terimchilar jamoasi (otryadi) rahbari etib \_\_\_\_\_ saylansin.
2. \_\_\_\_\_ ga ko'ngilli terimchilar jamoasi (otryadi) a'zolari nomidan paxta-to'qimachilik klasterlari, kooperatsiyalar va fermer xo'jaliklari yoki ularning vakillari bilan tuziladigan haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomalarini imzolash vakolati berilsin.

Bunda jamoa (otryad) a'zosining shartnoma doirasida majburiyatlarini bajarishdan istalgan vaqtda bir tomonlama voz kechish huquqi nazarda tutilsin.

3. Fuqarolarni majburiy va zo'raki mehnatga, shuningdek voyaga yetmagan shaxslarni mehnatning taqiqlangan shakllariga jalb etishga yo'l qo'ymaslikni nazorat qilish vazifasi uyushmagan aholi jamoasi (otryadi) rahbari zimmasiga yuklansin.

**Raislik qiluvchi**

\_\_\_\_\_  
(familiya, ism, sharihi)

**Kotib**

\_\_\_\_\_  
(familiya, ism, sharihi)

2022-yil paxta hosilini nes-nobud qilmasdan  
uyushqoqlik bilan yig'ib-terib olishni tashkil etish  
bo'yicha Tavsiyalarga  
2-ilova

**ISHONCHNOMA**

\_\_\_\_\_ tumani (shahri)

2022-yil «\_\_» \_\_\_\_\_

Ushbu ishonchnoma orqali quyida ro'yxati keltirilgan \_\_\_\_\_ viloyati \_\_\_\_\_ tumanida faoliyat yurituvchi fermer xo'jaliklari \_\_\_\_\_ tuman fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashiga fermer xo'jaligi nomidan quyidagi harakatlarni amalga oshirishga vakolat beradi:

amaldagi qonun talablariga rioya etish sharti bilan fermer xo'jaligi nomidan 2022-yil paxta terimi mavsumida terimchilarni jalb etish yuzasidan shartnoma tuzish;

shartnoma doirasida terimchilar jamoasiga ko'rsatmalar berish;

ushbu shartnomani bajarish bilan bog'liq barcha zarur harakatlarni amalga oshirish.

Ushbu ishonchnoma vakolatlarni boshqa shaxsga o'tkazish huquqsiz 3 oy muddatga berildi.

Iшонchnoma imzolangan kundan kuchga kiradi.

№	Fermer xo'jaligining nomi	To'liq yuridik manzili	Fermer xo'jaligi rahbarining F.I.Sh.	Fermer xo'jaligi rahbari imzosi va muhri
1				
....				
....				
...				



2022-yil paxta hosilini nes-nobudqilmasdan  
uyushqoqlik bilan yig'ib-terib olishni tashkil etish  
bo'yicha Tavsiyalarga  
3-ilova

\_\_\_\_\_ - terim otryadi bilan \_\_\_\_\_ tuman fermer, dehqon xo'jaliklari  
va tomorqa yer egalari Kengashi (yoki paxta-to'qimachilik klasterlari, kooperatsiyalar)  
o'rtasida haq evaziga paxta hosilini terib berish bo'yicha \_\_\_\_-sonli

### SHARTNOMA

2022-yil " \_\_\_\_ " \_\_\_\_\_ tumani

\_\_\_\_\_ tumanidagi \_\_\_\_\_  
(Kengashning nomi)

(bundan buyon "Buyurtmachi" deb yuritiladi) nomidan \_\_\_\_ yil " \_\_\_\_ " \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_ -  
sonli ishonchnoma asosida faoliyat ko'rsatuvchi rahbari  
\_\_\_\_\_ bir tarafdin va \_\_\_\_-sonli terim otryadi  
(bundan buyon "Terim otryadi" deb yuritiladi) nomidan Terim otryadining 2022 yil \_\_\_\_ kundagi  
yig'ilish qaroriga asosan harakat qiluvchi otryad rahbari  
\_\_\_\_\_ ikkinchi tarafdin ushbu shartnomani quyidagilar  
haqida tuzdilar:

#### I. SHARTNOMANING PREDMETI

1.1. Shartnoma shartlariga ko'ra "Terim otryadi" "Buyurtmachi" belgilab bergan paxta yetishtirilgan yer uchaskasida paxta hosilini qo'l terimi asosida sifatli terib berish, "Buyurtmachi" esa bu xizmat uchun haq to'lash majburiyatini oladi.

#### II. TARAFLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

##### 2.1. "Buyurtmachi"ning huquqlari:

belgilab berilgan paxta yetishtirilgan yer uchaskasida terimning sifatli tashkil etilishi va hosilning terib topshirilishini;

shartnomaga muvofiq "Terim otryadi"dan qonun talablariga rioya etilishi, xususan, majburiy mehnat va voyaga yetmaganlar mehnatining taqiqlangan shakllariga jalb etmaslik bo'yicha qonun talablariga rioya etilishini;

terim puli tarqatilgandan so'ng terimchilar tomonidan imzolangan ro'yxat (vedomost)ning bir nusxasini taqdim etilishini talab etish.

##### 2.2. "Buyurtmachi"ning majburiyatlari:

paxta terimiga jalb etilishi mumkin bo'lgan yer uchastkasi haqida "Terim otryadi"ni xabardor qilish;

"Terim otryadi" uchun tarozi, o'choq-qozon, samovar va boshqa inventarlar, munosib mehnat sharoitlarini sanitar normalar doirasida ta'minlash va oziq-ovqat masalasini kelishilgan holda hal etish;

"Terim otryadi" tomonidan terilgan paxta hosilini o'z vaqtida qabul qilib olinishini ta'minlash;

terilgan paxta hosilini yuklash uchun “Terim otryadi”ni tirkamalar bilan ta’minlash;

“Terim otryadi” tomonidan terilgan paxta hosili hajmi to’g’risidagi ma’lumotlarni otryad rahbariga taqdim etish;

terib topshirilgan paxta hosili uchun belgilangan miqdorda va muddatlarda har kuni (kechi bilan besh kundan oshmaydigan muddatda) terim pulining to’lanishini ta’minlash.

### 2.3 “Terim otryadi”ning huquqlari:

paxta terimiga jalb etilishi mumkin bo’lgan yer uchastkasi haqida o’zini qiziqtirgan ma’lumotlarni olish;

“Terim otryadi” tomonidan terilgan paxta hosilini o’z vaqtida qabul qilib olinishini;

Terim uchun zarur bo’lgan inventarlar bilan taminlashni;

terilgan paxta hosilini yuklash uchun “Terim otryadi”ni tirkamalar bilan ta’minlashni;

terilgan paxta hosili hajmi to’g’risidagi ma’lumotlarni taqdim etishni;

terib topshirilgan paxta hosili uchun belgilangan miqdorda va muddatlarda har kuni (kechi bilan besh kundan oshmaydigan muddatda) terim pulining to’lanishini ta’minlashni talab qilish.

### 2.4 “Terim otryadi”ning majburiyatlari:

“Buyurtmachi” tomonidan belgilab berilgan Fermer xo’jaligining paxta yetishtirilgan yer uchastkasida terimning sifatli tashkil etilishi va hosilning terib topshirilishini;

shartnomaga muvofiq qonun talablariga rioya etilishi, xususan, majburiy mehnat va voyaga yetmaganlar mehnatining taqiqlangan shakllariga jalb etmaslik bo’yicha qonun talablariga rioya etilishini;

terim puli tarqatilgandan so’ng terimchilar tomonidan imzolangan ro’yxat (vedomost)ning bir nusxasini Buyurtmachiga taqdim etilishini ta’minlash.

## III. SHARTNOMANING BAJARILISHI. HISOB-KITOB QILISH TARTIBI

3.1. Majburiyatlar mazkur shartnoma shartlari va qonun hujjatlari talablariga muvofiq zarur tarzda bajarilishi kerak.

3.2. Agar taraflar o’z zimmalariga olgan barcha majburiyatlar bajarilishini ta’minlasa, shartnoma bajarilgan deb hisoblanadi.

3.3. Terim haqini to’lash tegishli normativ-huquqiy hujjat asosidaha bir kilogramm uchun:

Birinchi terimda \_\_\_\_\_ (\_\_\_\_\_) so’m;

summa so’z bilan yoziladi/

Ikkinchi terimda \_\_\_\_\_ (\_\_\_\_\_) so’mmiqdorida naqd pul shaklida

summa so’z bilan yoziladi/

to’lab beriladi.

## IV. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

4.1. “Buyurtmachi” “Terim otryadi”ni paxta ekin maydoni bilan ta’minlamaganligi, terilgan paxta xom-ashyosini qabul qilmaganligi va o’z vaqtida haq to’lamaganligi uchun O’zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo’ladi.

4.2. “Terim otryadi” o’ziga bog’liq bo’lgan sabablarga ko’ra, o’z zimmasidagi majburiyatini bajarmaganligi uchun O’zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo’ladi.

4.3. Har qanday holatda ham Buyurtmachining fuqarolik javobgarligi O’zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksiga binoan hal etiladi.

4.4. Taraflardan hech biri ikkinchi tarafning uchinchi shaxslar oldidagi majburiyatlari bo'yicha javobgar hisoblanmaydi.

#### V. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

4.1. Taraflar o'rtasida vujudga keladigan har qanday nizolar o'zaro kelishuv yo'li bilan mazkur shartnomada belgilangan tartibda hal etiladi.

4.2. O'zaro kelishuvga erishilmagan yoki hal etilishi mazkur shartnomada belgilanmagan hollarda nizo O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq hal etiladi.

#### VI. YAKUNLOVCHI QOIDALAR

5.1. Shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan ikki nusxada tuzildi.

5.2. Shartnomaga kiritiladigan qo'shimcha va o'zgartirishlar taraflarning kelishuvi bilan yozma shaklda amalga oshiriladi.

5.3. Shartnoma taraflardan birining tashabbusi bilan ikkinchi tarafni oldindan ogohlantirish shartisiz bekor qilinishi mumkin.

Terim otryadining terimchisi o'zining individual majburiyatlaridan istalgan vaqtda bir tomonlama voz kechishga haqli.

5.4. Shartnoma taraflar tomonidan imzolangan paytdan kuchga kiradi va majburiyatlarning to'liq bajarilguniga yoki u bekor qilingunga qadar amal qiladi.

Taraflar o'zaro kelishuviga ko'ra, shartnomada boshqa shartlarni ham nazarda tutishlari mumkin.

#### VII. TARAFLARNING REKVIZITLARI:

“Buyurtmachi”

“Terim otryadi”

\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_

#### IMZOLAR

Buyurtmachi \_\_\_\_\_

«Terim otryadi» rahbari \_\_\_\_\_

## TERIMCHILAR UCHUN MEHNAT SHAROITLARINING MINIMAL ME'YORLARI

### I. Sanitariya va gigiena talablari:

1. Terimchilarning tibbiy ko'rikdan o'tkazilishini ta'minlash.
2. Paxta terimiga jalb etilayotganlar uchun qurilishi, sanitariya-gigiena holati yaxshi bo'lgan yotoqxonalar binosini ajratish. Yotoqxonaning talab darajasida yoritilishi, shamollatilishi, harorati saqlab turilishi (isitilishi)ga ahamiyat berish.
3. Terimchilar joylashtirilishidan bir hafta oldin hududiy dezinfeksiya stansiyalari tomonidan fermer xo'jaliklari bilan tuzilgan shartnoma asosida yotoqxonalarda dezinfeksiya, dezinseksiya va deratizatsiya tadbirlarini o'tkazish.
4. Yotoqxonaning eshik va oynalari yaxshi yopilishi, oynalarning fortochkalari bo'lishi, poli, shipi, devorlari tekis, yoriqsiz bo'lishi, kirish joylari (zinapoyalari) talab darajasida bo'lishiga e'tibor qaratish.
5. 15 nafar terimchiga 1 ta dush setkasi to'g'ri keladigan dush xonalari tashkil etish va keyinchalik ularning sanitariya-texnika jihozlari sozligini saqlab (ta'mirlab) turish.
6. Dush xonalari tashkil etilmagan holda yotoqxonaga yaqin bo'lgan hammomda terimchilarning grafik asosida cho'milishini tashkil etish.
7. 10 nafar terimchiga 1 ta umivalnik to'g'ri keladigan qo'l va oyoqlarni yuvish joyini tashkil etish va keyinchalik ularning sanitariya-texnika jihozlari sozligini saqlab (ta'mirlab) turish.
8. Yotoqxonaga 15 nafar va undan ortiq ayol joylashtirilganda ayollar gigienasi xonasini tashkil etish.
9. Yotoqxonadan 30-50 metr masofada ayollar va erkaklar uchun 10 nafar terimchiga 1 ta o'rin hisobida alohida xojatxonalar tashkil etish, ularning sanitariya holatini tekshirib borish, xlorli ohak eritmasi yoki xloramin bilan yuvib turish.
10. Oqava suvlar uchun ariqchalar ochish va oqava suvlarni yotoqxonalar hududidan tashqariga, ya'ni hududiy sanitariya nazorati organlari ruxsati bilan ochilgan o'ralarga yoki kanalizatsiya qudug'iga chiqarib yuborish;  
yotoq joylardan 25 metr uzoqlikda kundalik hosil bo'ladigan maishiy chiqindilar va oziq-ovqat qoldiqlari uchun maxsus xandak qazib, har kuni solingan chiqindilar ustini tuproq bilan ko'mib turish.
11. Ichimlik suvi bilan uzluksiz ta'minlash choralarini ko'rish. Ichimlik suvi chetdan olib kelinadigan bo'lsa, suvni saqlash sig'imi yaxshi o'rnatilganligi va jo'mragi yaxshi ishlashiga e'tibor berish.

12. Oshxonaning sanitariya-gigiena holati talab darajasida bo'lishini ta'minlash.

13. Oshxonani xavfsizlik texnikasi talablariga javob beradigan zarur asbob-uskunalar bilan jihozlash. Ovqat xona ichida tayyorlanayotganida, xonani shamollatishni nazarda tutish.

14. Tez buziladigan oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash uchun oshxonaga muzlatgich o'rnatish.

15. Paxta terimiga jalb etilganlarning ovqatlanish joyini tashkil etish va sanitariya holatiga ahamiyat berish.

16. Ovqatlanish joylarini bino ichi yoki bostirmada tashkil qilish, stol va stullar bilan to'liq ta'minlash hamda oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash uchun maxsus xonalar ajratish.

17. Ovqatlanish joyi yaxshi yoritilgan bo'lishi, toza ichimlik suvi va idish-tovoqlarni yuvish uchun issiq suv hamda yuvish va zararsizlantirish vositalari bilan ta'minlangan bo'lishiga erishish.

18. Har bir terimchini 2-5 l qaynatilgan kunlik ichimlik suvi va har kungi issiq ovqat bilan ta'minlash.

19. Terim ishtirokchilarining daladagi ko'lmak, zovur, ariqlardan suv ichishlarini man etish.

20. Terim ishtirokchilari sog'lig'ini nazorat qilib borish maqsadida yotoqxonada tibbiy punkt tashkil etib, zarur dori-darmonlar bilan ta'minlash va malakali shifokorlarni birlashtirish;

yetkazib berilgan dori-darmon uchun "O'z paxtasanoat" AJ tizimidagi paxta tozalash korxonalari hamda paxta to'qimachilik korxonalari tomonidan belgilangan tartibda to'lab berish.

21. Dalada chang, to'zon, qattiq shamol, yog'ingarchilik ro'y berganida terimchilar ishni to'xatib pana joyga o'tishini tashkil etish.

## **II. Xavfsizlik talablari:**

1. Paxta terimiga jalb etilayotganlarni xavfsizlik texnikasi va yong'in xavfsizligi bo'yicha yo'riqdan o'tkazish.

2. Bino devorlari va boshqa joylarida elektr o'tkazgich (sim)lar yuzaga chiqib qolmasligi, ular izolyatsiyasining yorilgan joylari bo'lmasligi, rozetka va o'chirgichlar yaxshi himoyalangan va soz holatda bo'lishini tekshirish.

3. Binolarda ochiq spiralli va qo'lbola elektr qurilmalaridan foydalanishni taqiqlash.

4. Yotoqxonada yonida birlamchi o't o'chirish vositalari bilan jihozlangan yong'in shitini o'rnatish.

5. Elektr energiyasi bilan uzluksiz ta'minlash choralarini ko'rish. Terimchilarni jalb qilishdan oldin elektr xo'jaligini reviziyadan o'tkazish. Elektr

simlarining izolyatsiyasini tekshirish. Elektr simlarini poldan 2,5 metrdan past bo'lmagan balandlikda o'tkazish.

6. Yoritish vositalarini ta'mirlash va uning ichki elementlarini ko'zdan kechirish, yaroqsiz holga kelgan elektr chiroqlari va himoya shishalarini almashtirish ishlarini elektr tizimi tarmog'i o'chirilgan holda bajarish. Ko'chma yoritish vositalarini ishlatishda izolyatsiyasi rezina shlangli egiluvchan o'tkazgichdan foydalanish. Yoritish vositalarini toza va soz holatda saqlash.

7. Elektr bilan bog'liq ishlarni, shuningdek yoritish vositalarini nazorat qilish va ta'mirlash ishlarini mazkur ishlarni bajarishga mas'ul bo'lgan xodimlar tomonidan amalga oshirilishini ta'minlash.

8. Tabiiy gaz (yoki o'tin, ko'mir) bilan uzluksiz ta'minlash choralarini ko'rish. Gaz plitalarining sozligiga e'tibor qaratish. Tabiiy gaz bo'lmagan joylarda o'tin, ko'mir zaxiralarini oldindan tayyorlab qo'yish.

9. Terimchilarni dalaga olib chiqish va olib kelishni faqat kunning yorug' paytida amalga oshirish, xodimlar piyoda harakatlanganida transport vositalari harakatiga halaqit bermaslik maqsadida saf bo'lib yurishlarini kuzatib borish.

10. Dalaga yetib kelgandan so'ng terimchilarni ish joylariga taqsimlash.

11. Terimchilarni uzoqroq (5 km dan ortiq masofadagi) dalaga olib borish va daladan olib kelishda faqat odamlarni tashish uchun mo'ljallangan avtotransport vositalaridan foydalanish.

12. Terimchilar transport vositasidan tushganlarida, yo'lni kesib o'tishlarini rahbar boshchiligida, transport vositasining orqa tomonidan o'tishlarini tashkil qilish.

13. Terimchilarni tashish uchun mo'ljallangan avtomashinalarning texnik sozligi va haydovchilarning "D" kategoriyali guvohnomaga ega bo'lishiga alohida e'tibor qaratish.

14. Terimchilarning boshida kepka bo'lishi, egnida uzun yengli ko'ylak bo'lishi va yeng uchi taqilgan bo'lishi, oyog'ida botinka (tufli) yoki etik bo'lishini nazoratga olish.

15. Paxta ortiladigan traktor tirkamalarining soz holda bo'lishiga erishish.

16. Terimchilarning traktor tirkamalariga chiqishi, traktor yurayotganida tirkamaga osilishini man etish.

17. Terimchilarning paxta dalasi ichida uxlab qolishi, ovqatlanishi holatlariga yo'l qo'yilmasligini nazoratga olish.

18. Terimchilarning paxta terilayotgan maydonda harakatlanayotgan mexanizmlarga yaqinlashishi, uning yo'nalishiga chiqishi holatlarining oldini olish.

19. Terim ishtirokchilarining yong'in xavfsizligi qoidalariga so'zsiz amal qilishini ta'minlash.

20. Paxta terimiga jalb etilganlarni ish joyidan YPX kuzatuvda olib chiqish va qaytarib kelishni tashkillashtirish.

2022-yil paxta hosilini nes-nobud qilmasdan  
uyushqoqlik bilan yig'ib-terib olishni tashkil  
etish bo'yicha Tavsiyalarga  
5-ilova

\_\_\_\_\_ -otryad a'zolarining umumiy yig'ilishi

## B A Y O N I

2022-yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ № \_\_\_\_\_ sh. (t.)

Otryad a'zolari soni - \_\_\_\_\_ nafar  
Yig'ilishda ishtirok etayotganlar soni - \_\_\_\_\_ nafar  
Uzrli sabablarga ko'ra ishtirok etmayotganlar - \_\_\_\_\_ nafar

Raislik qiluvchi: \_\_\_\_\_

### KUN TARTIBI:

1. \_\_\_\_\_ -otryad kasaba uyushmasi tashkilotini tuzish to'g'risida.
2. \_\_\_\_\_ -otryad kasaba uyushmasi tashkilotchisini saylash to'g'risida.
3. \_\_\_\_\_ -otryad a'zolarini kasaba uyushmasiga a'zolikka qabul qilish to'g'risida.
4. \_\_\_\_\_ -otryad kasaba uyushmasi tashkilotini Agrosanoat majmui xodimlari kasaba uyushmasi \_\_\_\_\_ tuman kengashiga a'zo bo'lishi to'g'risida.

**Eshitildi:** \_\_\_\_\_ -otryad kasaba uyushmasi tashkilotini tuzish to'g'risida.

Otryadda kasaba uyushmasi tashkilotini tuzish, shu orqali otryad a'zolarining manfaatlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadga muvofiqligi, bu, o'z navbatida, nafaqat otryad a'zolari, balki ish beruvchi uchun ham qulayliklar tug'dirishi, mehnat unumdorligining oshishiga xizmat qilishi qayd etildi.

Otryadda kasaba uyushmasi tashkilotini tuzish yuzasidan otryad a'zolari ham o'z fikr-mulohazalarini bildirib, ushbu tashabbusni qo'llab-quvvatladilar.

### Qaror qilindi:

1. \_\_\_\_\_ -otryad kasaba uyushmasi tashkiloti tuzilsin.

**Eshitildi:** \_\_\_\_\_ -otryad kasaba uyushmasi tashkilotchisini saylash to'g'risida.

Otryad tashkilotchisini saylash yuzasidan otryad a'zolari o'z fikr-mulohazalarini bildirib, \_\_\_\_\_ nomzodini qo'llab-quvvatladilar.

### Qaror qilindi:

1. \_\_\_\_\_ -otryad kasaba uyushmasi tashkilotchisi etib saylansin.

2. Kasaba uyushmasi tashkilotchisi \_\_\_\_\_ ga:

otryad a'zolari nomidan otryad rahbari va paxta-to'qimachilik klasterlari, kooperatsiyalar va fermer xo'jaliklari rahbarlari bilan jamoa muzokaralarini olib borish hamda mehnatga haq to'lash, munosib mehnat sharoitlarini yaratish, oziq-ovqat va ichimlik suvi bilan ta'minlash kabi masalalarni hal etish yuklatilsin.

**Kun tartibidagi 3-masala bo'yicha eshitildi:** \_\_\_\_-otryad a'zolarini kasaba uyushmasiga a'zolikka qabul qilish to'g'risida.

**Qaror qilindi:**

1. \_\_\_\_-otryad a'zolarinining kasaba uyushmasiga a'zolikka qabul qilish to'g'risidagi arizalari ko'rib chiqilib, ular paxta yig'im-terimi mavsumi davriga O'zbekiston Agrosanoat majmui xodimlari kasaba uyushmasiga a'zolikka qabul qilinsinlar.

**Eshitildi:** \_\_\_\_-otryad kasaba uyushmasi tashkilotini Agrosanoat majmui xodimlari kasaba uyushmasi \_\_\_\_\_ tuman kengashining kasaba uyushmasi xizmatiga olinishi to'g'risida.

**Qaror qilindi:**

1. Agrosanoat majmui xodimlari kasaba uyushmasi \_\_\_\_\_ tuman kengashidan yangi tuzilgan kasaba uyushmasi tashkilotini kasaba uyushmasi xizmatiga olish, terim pullaridan a'zolik badallarini terim mavsumidagi ish haqidan ushlab qolishni ish beruvchi va bank muassasasi bilan hal qilish hamda ushbu a'olik badallari hisobidan kasaba uyushmasi tashkilotchisiga eng kam mehnat haqi miqdorigacha oylik rag'batlantirish to'lanishini ta'minlash so'ralsin.

2. Mazkur bayon Agrosanoat majmui xodimlari kasaba uyushmasi \_\_\_\_\_ tuman kengashiga yo'llansin.

**Raislik qiluvchi**

\_\_\_\_\_  
(familiya, ism, sharifi)

**Kotib**

\_\_\_\_\_  
(familiya, ism, sharifi)



2022-yil paxta hosilini nes-nobud qilmasdan  
uyushqoqlik bilan yig'ib-terib olishni tashkil  
etish bo'yicha Tavsiyalarga  
6-ilova

\_\_\_\_\_ -otryad kasaba uyushmasi  
tashkilotchisiga  
otryad a'zosi \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_ dan

### ARIZA

Meni O'zbekiston Agrosanoat majmui xodimlari kasaba uyushmasi a'ziligiga vaqtinchalik ikki oy muddatga qabul qilishingizni so'rayman va menga 2022 yil paxta hosilini terib olish uchun to'lanadigan haqdan 1% miqdoridagi kasaba uyushmasiga a'zolik badalini buxgalteriya orqali ushlanib, kasaba uyushmasi tuman kengashining hisob raqamiga o'tkazib berilishiga roziman.

\_\_\_\_\_  
(familiya, ism, sharifi)

\_\_\_\_\_  
(imzo)

\_\_\_\_\_  
(sana)

## **Majburiy mehnat va bolalar mehnatiga yo'l qo'ymaslik borasida olib boriladigan monitoringlar o'tkazish tartibi to'g'risida vaqtinchalik**

### **NIZOM**

#### **1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Ushbu Nizom majburiy mehnat va bolalar mehnatiga yo'l qo'ymaslik borasida vakolatli tashkilotlar va mansabdor shaxslar tomonidan olib boriladigan monitoringlar o'tkazish tartibini belgilaydi.

2. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

**majburiy mehnat** – har qanday jismoniy shaxsdan, o'z ixtiyori bilan o'z xizmatini taklif qilmaganligi yoki bajarmaganligi uchun uning huquqlari va imtiyozlaridan cheklanishida ifodalanadigan jazolash tahdidi ostida talab qilinadigan, vazifasiga (majburiyati yoki burchiga) kirmaydigan har qanday ish yoki xizmat;

**bolalar mehnati** – o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslarning mehnatidan uning sog'lig'iga, xavfsizligiga yoki axloq-odobiga ziyon yetkazishi mumkin bo'lgan hamda ta'lim olish jarayonini buzadigan ishlarda foydalanish;

**monitoring** – vakolatli tashkilotlar va mansabdor shaxslar tomonidan qonun hujjatlari va ushbu Nizomda belgilangan tartibda majburiy mehnat va bolalar mehnatini oldini olish maqsadida mulkchilik shaklidan qati nazar barcha shakllaridagi korxonalar, muassasalar, tashkilotlarga (keyingi o'rinlarda tashkilot deb ataladi) va jismoniy shaxslarga tegishli binolar va hududlarda, jamoat transport vositalarida, ko'cha va dala maydonlarda o'tkaziladigan kuzatuvlar va o'rganishlar.

#### **2-bob. Majburiy mehnat va bolalar mehnatiga yo'l qo'ymaslik borasida olib boriladigan monitoringlarning maqsad va vazifalari**

3. Majburiy mehnat va bolalar mehnatiga yo'l qo'ymaslik borasida olib boriladigan monitoringlarning maqsadi biror-bir shaklda majburiy mehnatdan yoki bolalar mehnatidan foydalanish bilan bog'liq xavf-xatarni o'z vaqtida aniqlash va

bartaraf etish orqali xodimlarning kafolatlangan mehnat huquqlarini ta'minlashdan iborat.

4. Majburiy mehnat va bolalar mehnatiga yo'l qo'ymaslik borasida olib boriladigan monitoringlarning vazifalari:

majburiy mehnat va bolalar mehnatini oldini olish;

majburiy mehnat va bolalar mehnati bilan bog'liq qonun hujjatlari buzilishi holatlarini tahlil qilish va ularni sodir etish shart-sharoitlarini bartaraf qilish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqish;

fuqarolarning erkin mehnat qilishga oid huquqlarini himoya qilish;

majburiy mehnat va bolalar mehnati bo'yicha ish beruvchilar, xodimlar va boshqa fuqarolarning huquqiy ongini oshirish yuzasidan tushuntirish ishlarini amalga oshirish.

### **3-bob. Monitoring o'tkazish huquqiga ega bo'lgan tashkilotlar va mansabdor shaxslar**

5. Majburiy mehnat va bolalar mehnatiga yo'l qo'ymaslik bo'yicha inson huquqlarini, shu jumladan mehnat huquqlarni himoya qilish vazifasiga kiradigan, qonun hujjatlariga asosan vakolat berilgan quyidagi tashkilotlar va mansabdor shaxslar tomonidan monitoringlar o'tkaziladi:

O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi Davlat mehnat inspeksiyasi tomonidan doimiy ravishda «Yagona milliy mehnat tizimi» idoralararo dasturiy-apparat kompleksidagi ma'lumotlar, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda e'lon qilingan ma'lumotlar asosida;

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan yuqori turuvchi tashkilotlar topshiriqlari ijrosi yuzasidan hamda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda e'lon qilingan ma'lumotlar asosida;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi tomonidan reja, chora-tadbirlar va topshiriqlar ijrosi yuzasidan hamda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda e'lon qilingan ma'lumotlar asosida;

nodavlat notijorat tashkilotlar jamoatchilik monitoringi dorasida qonun hujjatlari asosida;

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining deputatlari va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining senatorlari – parlament nazorati doirasida;

prokuratura organlari mehnat to'g'risidagi qonunlarning aniq va bir xil ijro etilishi ustidan nazorat olib borish yuzasidan;

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining normativ huquqiy hujjatlarida, dasturlarida va topshiriqlarida hamda Odam savdosiga va majburiy mehnatga qarshi kurashish milliy komissiyasining qarorlarida, dasturlarida va topshiriqlarida ko'rsatilgan davlat organlari va nodavlat notijorat tashkilotlar tomonidan ham majburiy mehnat va bolalar mehnatiga yo'l qo'ymaslik bo'yicha ushbu Nizomda belgilangan tartibda monitoring o'tkazilishi mumkin.

Yuqori turuvchi tashkilot tomonidan tizimidagi tashkilot va bo'linmalarida majburiy mehnat va bolalar mehnatiga yo'l qo'ymaslik bo'yicha maxsus inspeksiyalari orqali ushbu Nizomda belgilangan tartibda monitoringlarni amalga oshirishi mumkin.

6. Xorijiy ekspertlar monitoringlarni amalga oshirishda davlat organlari va nodavlat notijorat tashkilotlar hamda O'zbekiston Respublikasi fuqarolari (huquq himoyachilari) bilan hamkorlik qilishi mumkin.

7. Majburiy mehnat va bolalar mehnatiga yo'l qo'ymaslik bo'yicha monitoring o'tkazish huquqiga ega bo'lgan tashkilotlar va mansabdor shaxslar monitoringlarni alohida yoki birgalikda amalga oshirishi mumkin.

8. Majburiy mehnat va bolalar mehnatiga yo'l qo'ymaslik borasida olib boriladigan monitoringlar tekshirish hisoblanmaydi.

9. Ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda e'lon qilingan ma'lumotlarda, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarida, ma'lum bir hududda yoki sohada (tashkilotlarda) majburiy mehnat va bolalar mehnati sodir etilayotganligi haqida ma'lumotlar mavjud bo'lsa, murojaat yoki ma'lumot anonim bo'lgan taqdirda ham ushbu hudud yoki sohada monitoring o'tkazilishi mumkin.

10. Majburiy mehnat va bolalar mehnatiga yo'l qo'ymaslik borasida ma'lum bir hududda doimiy ravishda monitoringlarni o'tkazish xizmat vazifasiga kiradigan mansabdor shaxslarga monitoring o'tkazishi uchun alohida qaror, buyruq yoki topshiriq talab etilmaydi. Boshqa hollarda monitoring o'tkazish uchun vakolatli mansabdor shaxsning qarori, buyrug'i yoki boshqa topshiriq ko'rsatilgan rasmiy hujjat monitoring o'tkazishga asos bo'ladi.

11. Monitoringlar majburiy mehnat va bolalar mehnati sodir etilishi xavf-xatari ko'p bo'lgan soha va hududlarda doimiy ravishda o'tkaziladi.

#### 4-bob. Monitoring o'tkazish tartibi

12. Majburiy mehnat va bolalar mehnatiga yo'l qo'ymaslik bo'yicha monitoringlar kunning istalgan vaqtida tashkilotlar va jismoniy shaxslarga tegishli binolar va hududlarda, ko'cha va dala maydonlarda o'tkaziladi.

13. Fuqarolarning turar joylarida monitoring o'tkazish faqat turar joy egasining roziligi asosida o'tkazilishi mumkin.

14. Harbiylashtirilgan muassasalar, jazoni ijro etish muassasalari va qonun hujjatlariga asosan begona kishilar kirishi taqiqlangan binolarda hamda hududlarda monitoring o'tkazilmaydi.

15. Monitoringni amalga oshiruvchi mansabdor shaxslar quyidagi huquqlarga ega:

monitoring o'tkaziladigan hududlarni, dala maydonlarni, bino ichkarisi va tashqarisini ko'zdan kechirish;

fuqarolar bilan, shuningdek tashkilotlarning rahbarlari va xodimlari bilan (alohida) suhbatlar o'tkazish va zarur bo'lganda tushuntirishlar olish hamda ular o'rtasida ijtimoiy so'rovnomalar o'tkazish, shu jumladan telefon yoki ijtimoiy tarmoqlar orqali ijtimoiy so'rovnomalar o'tkazish;

monitoringni samarali o'tkazish bilan bog'liq zarur hujjatlar va boshqa axborotlarni talab qilish;

monitoring jarayoni bilan bog'liq zarur hujjatlardan nusxa olish;

monitoring davomida shaxslarning roziliklari asosida maxsus texnika vositalarini (audio- va videoyozuv, shuningdek fotosuratga olish) qo'llash;

vakolatlari doirasida aniqlangan qonun buzilishlarni bartaraf etish to'g'risida bajarilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmalar berish;

aniqlangan qonun buzilishlar to'g'risidagi Davlat mehnat inspeksiyasiga, voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyaga yoki huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar berish;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

16. Monitoringni amalga oshiruvchi mansabdor shaxslar monitoring jarayonida quyidagilarga majbur:

tashkilotlarda monitoring o'tkazilayotganda tashkilot rahbariyatiga, turarjoy yoki noturarjoyda monitoring o'tkazilayotganda turarjoy yoki noturarjoy egasiga monitoring o'tkazishga asos bo'luvchi zarur hujjatlarni taqdim etish;

tashkilotlarning ishlab chiqarish jarayonlariga xalaqit bermaslik;

tashkilotlarning moliya-xo'jalik faoliyatiga aralashmaslik;

majburiy mehnat yoki bolalar mehnati haqida xabar bergan shaxsni hamda bolalar mehnati jabrdiydasining shaxsiga oid ma'lumotlarni oshkor etmaslik

(monitoring jarayonlari tugagandan so'ng yoki monitoringni amalga oshirgan mansabdor shaxslar lavozimdan ozod etilgandan keyin ham);

monitoring natijalari to'g'risida ma'lumotnoma tuzish, agar maxsus texnika vositalaridan foydalanilgan bo'lsa, bu haqida ma'lumotnomaga yozuv kiritish;

monitoring davomida majburiy mehnat va bolalar mehnati sodir etilayotganligi aniqlansa, ushbu qonun buzilishni darhol bartaraf etish choralari ko'rish;

monitoring jarayonida aniqlangan qonun buzilish holatlari haqida tegishliligi bo'yicha Davlat mehnat inspeksiyasi yoki huquqni muhofaza qiluvchi organlarga hamda yuqori turuvchi organlarga xabar berish.

Monitoringni amalga oshiruvchi mansabdor shaxslarga qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham yuklatilishi mumkin.

17. Monitoring o'tkazilayotgan tashkilot rahbari (turarjoy yoki noturarjoy joy yoxud dala maydon egasi) quyidagi huquqlarga ega:

monitoringni amalga oshiruvchi mansabdor shaxslardan ularning xizmat guvohnomasi va monitoringni o'tkazishga asos bo'ladigan hujjatlarni talab qilish;

monitoring o'tkazishga huquqi bo'lmagan yoki monitoring o'tkazishga asos bo'ladigan hujjatlarga ega bo'lmagan shaxslarning monitoring o'tkazishiga yo'l qo'ymaslik;

monitoringni amalga oshiruvchi mansabdor shaxslarning vakolatiga kirmaydigan masalalarga oid talablarini bajarmaslik va monitoring predmetiga taalluqli bo'lmagan materiallarni taqdim etmaslik;

monitoring natijalari to'g'risidagi ma'lumotnomaning nusxasini berishni talab qilish;

monitoring o'tkazishga asos bo'ladigan hujjatlarni taqdim etmaganlik, monitoring natijalari to'g'risidagi ma'lumotnoma mazmuni va monitoringni amalga oshiruvchi mansabdor shaxslar tomonidan monitoringa aloqador bo'lmagan har qanday qo'shimcha ko'rsatmalar berish yuzasidan yuqori turuvchi, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va sudga shikoyat qilish.

Monitoring o'tkazilayotgan tashkilot (turarjoy yoki noturarjoy joy yoxud dala maydon egasi) qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

18. Monitoring o'tkazilayotgan tashkilot rahbari (turarjoy yoki noturarjoy joy yoxud dala maydon egasi) quyidagilarga majbur:

monitoring o'tkazish huquqini beruvchi zarur hujjatlarga ega bo'lgan monitoringni amalga oshiruvchi mansabdor shaxslarni tashkilot (turarjoy yoki noturarjoy joy yoxud dala maydon egasi) hududiga kiritish;

monitoringni amalga oshiruvchi mansabdor shaxslarning qonuniy talabiga binoan monitoring o'tkazish bilan bog'liq zarur hujjatlar va boshqa axborotlarni o'z vaqtida taqdim etish;

monitoring jarayoniga xalaqit bermaslik, monitoringni amalga oshiruvchi mansabdor shaxslarga monitoringni samarali o'tkazishi uchun shart-sharoitlar yaratish;

monitoring natijalari to'g'risidagi ma'lumotnomada ko'rsatilgan qonun buzilish holatlarini o'z vaqtida bartaraf etish choralarini ko'rish.

Monitoring o'tkazilayotgan tashkilot (turarjoy yoki noturarjoy joy yoxud dala maydon egasi) qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham yuklatilishi mumkin.

19. Majburiy mehnat va bolalar mehnatidan (bolalarning ota-onasi yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarning) jabrlangan yoki guvohi bo'lgan fuqarolarning huquqlari:

majburiy mehnat va bolalar mehnati haqida murojaat etish yoki xabar berish hamda uning shaxsiga oid ma'lumotlarni oshkor qilmaslikni talab qilish;

monitoringni amalga oshiruvchi mansabdor shaxslardan ularning xizmat guvohnomasi va monitoringni o'tkazishga asos bo'ladigan hujjatlarni talab qilish;

monitoringni amalga oshiruvchi mansabdor shaxslarga tegishli tushuntirishlar berish, monitoring jarayonlarida ishtirok etish;

monitoringni amalga oshiruvchi mansabdor shaxslarga monitoringa aloqador bo'lgan ma'lumotlarni taqdim etish;

monitoring jarayonida maxsus texnika vositalardan foydalanishga ruxsat bermaslik;

monitoring natijalari to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'lish;

monitoringni amalga oshiruvchi mansabdor shaxslarning harakatlari, monitoring natijalari yuzasidan yuqori turuvchi, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va sudga shikoyat qilish.

Majburiy mehnat va bolalar mehnatidan jabrlangan yoki guvohi bo'lgan fuqarolar qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

20. Majburiy mehnat va bolalar mehnatidan jabrlangan (bolalarning ota-onasi yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarning) yoki guvohi bo'lgan fuqarolar quyidagilarga majbur:

monitoringni amalga oshiruvchi mansabdor shaxslarga tushuntirish berishda haqqoniy ko'rsatuvlar berish;

monitoringni amalga oshiruvchi mansabdor shaxslarning qonuniy talabiga binoan monitoring o'tkazish bilan bog'liq zarur hujjatlar va boshqa axborotlarni o'z vaqtida taqdim etish;

monitoring jarayoniga xalaqit bermaslik, haqiqatni aniqlashga oid dalillarni yo'q qilmaslik, monitoringni amalga oshiruvchi mansabdor shaxslarga monitoringni samarali o'tkazishi uchun ko'maklashish;

majburiy mehnat va bolalar mehnatidan jabrlanganlarni shaxsiga oid ma'lumotlarni ularning (bolalarning ota-onasi yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarning) rozilgisiz oshkor etmaslik.

Majburiy mehnat va bolalar mehnatidan (bolalarning ota-onasi yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar) jabrlangan yoki guvohi bo'lgan fuqarolar qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham yuklatilishi mumkin.

21. Majburiy mehnatga yo'l qo'ymaslik bo'yicha monitoring o'tkazish jarayonida quyidagilarga e'tibor qaratiladi va aniqlanadi:

jismoniy shaxsga, uning ixtiyoriy roziligi bo'lmagan mehnat faoliyatini hamda mehnat huquqlarini amalga oshirishga to'sqinlik qilayotgan mehnat shakllarini amalga oshirishga majbur qiladigan har qanday moddiy, jismoniy yoki ruhiy ta'sir choralarini qo'llanilishi natijasida majburiy mehnat ko'rsatkichlari aldash, harakatni cheklash, ajratib qo'yish, jismoniy va jinsiy zo'ravonlik, qo'rqitish va tahdidlar, shaxsni tasdiqlovchi hujjatlarni olib qo'yish, ish haqidan ushlab qolish, manfaatni suiste'mol qilish, qarz asosidagi qaramlik, tahqirlovchi yashash va mehnat sharoitlari, huquqlarni va imtiyozlardan mahrum qilish holatlari;

xodimlar bilan mehnat shartnomalar tuzishda va ularning mehnat vazifalarini belgilovchi lokal hujjatlarda xodimning mehnat vazifasi doirasiga kirmaydigan mehnat huquqlarini amalga oshirishga to'sqinlik qiladigan mehnatning shakllarini belgilanmaganligi;

agar majburiy mehnatga yo'l qo'yilgan holatlar aniqlangan bo'lsa, ushbu majburiy mehnat uning tashabbusi bilan yoki yuqori turuvchi tashkilot yoxud boshqa mansabdor shaxsning topshirig'i bilan amalga oshirilganligi;

majburiy mehnatdan jabrlanganlar soni, ularga yetkazilgan zararlar;

majburiy mehnat sodir etilgan vaqt;

majburiy mehnatga guvoh bo'lgan fuqarolar (agar mavjud bo'lsa);

majburiy mehnatni kelib chiqish sabablari;

va boshqa majburiy mehnat holatini aniqlash hamda aybdor shaxslarga nisbatan tegishli choralar qo'llanilishida aybini isbotlovchi dalillar mavjudligi.

22. Bolalar mehnati bo'yicha monitoring o'tkazish jarayonida quyidagilarga e'tibor qaratiladi va aniqlanadi:

qonun hujjatlariga asosan bolalar mehnatidan ularning sog'lig'iga, xavfsizligiga yoki axloq-odobiga ziyon yetkazishi mumkin bo'lgan ishlarda foydalanish taqiqlangan ishlarda foydalanishga yo'l qo'yilmaganligi;

bolalar mehnatidan ta'lim olish jarayonini buzmaydigan ishlarda foydalanilishi;



ish vaqtining muddati haftasiga o‘ttiz olti soatdan oshmaydigan o‘n oltidan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmaganlar, haftasiga yigirma to‘rt soatdan oshmaydigan o‘n beshdan o‘n olti yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmaganlar mehnatidan foydalanishga yo‘l qo‘yilmasligi;

agar bolalar mehnatiga yo‘l qo‘yilgan holatlar aniqlangan bo‘lsa, ushbu bolalar mehnati uning tashabbusi bilan yoki yuqori turuvchi tashkilot yoxud boshqa mansabdor shaxsning topshirig‘i bilan amalga oshirilganligi;

bolalar mehnatidan jabrlanganlar soni, ularga yetkazilgan zararlar;

bolalar mehnati sodir etilgan vaqt;

bolalar mehnatiga guvoh bo‘lgan fuqarolar (agar mavjud bo‘lsa);

bolalar mehnatini kelib chiqish sabablari;

va boshqa bolalar mehnati holatini aniqlash hamda aybdor shaxslarga nisbatan tegishli choralar qo‘llanilishida aybini isbotlovchi dalillar mavjudligi.

### **5-bob. Axborot almashishdagi hamkorlik**

23. Monitoringni amalga oshirgan tashkilotlar yoki mansabdor shaxslar majburiy mehnat va bolalar mehnati holatlari aniqlanganda, bu haqida Davlat mehnat inspeksiyasiga, voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha komissiyaga yoki huquqni muhofaza qiluvchi organlarga tegishli hujjatlarni taqdim etishi kerak.

24. Monitoringni amalga oshirgan tashkilotlar yoki mansabdor shaxslar monitoring natijalari bo‘yicha tahlillarni amalga oshiruvchi va tegishli chora-tadbirlarni begilovchi mas‘ul tashkilotlarga ularning so‘roviga ko‘ra tahliliy ma‘lumotlarni taqdim etishi lozim.

25. Monitoringni amalga oshirgan tashkilotlar yoki mansabdor shaxslar o‘zaro majburiy mehnat va bolalar mehnati sodir etilganligi yoki sodir etilayotganligi haqidagi ma‘lumotlarni yoxud monitoring natijalari bo‘yicha ma‘lumotlarni almashishi mumkin.